Grammatik jihatdan, maqol va matallar mustaqil jumlalar shaklida bo‘ladi, bu ularning kontekstga bog‘liqligini kamaytiradi va ularni frazeologik birliklardan ajratish imkonini beradi. Shu bilan birga, ular lingvistik va madaniy ma’lumotlarni keng miqyosda aks ettiradi. Ular madaniyat, an’analar, tarixiy va ijtimoiy tajribani o‘zida mujassam etadi. Bu xususiyatlar maqol va matallar til tizimida o‘ziga xos mustaqil qatlamni tashkil etishini ko‘rsatadi. Shunday qilib, maqol va matallarni frazeologiyaning alohida, mustaqil paremiologik qatlami sifatida o‘rganish ilmiy jihatdan muhimdir. Bu nafaqat ularning semantik va strukturaviy xususiyatlarini aniqlash, balki ulardan nutq va didaktik kontekstlarda samarali foydalanish imkonini beradi. Bundan tashqari, maqol va matallarning paremiologik tahlili lingvomadaniyatshunoslik sohasidagi tadqiqotlar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Виноградов В.В. Фразеология современного русского языка. Русский язык. Грамматическое учение о слове. М., “Высшая школа”, 1972, с. 23–45.

(2). Кунин А.В. Основные типы английских фразеологических единиц. Англо-русский фразеологический словарь. М., “Русский язык”, 1984, с. 5–20.

(3). Пермяков Г.Л. Пословицы и поговорки как объект лингвистического исследования. От поговорки до сказки. М., “Наука”, 1970, с. 12–40.

(4). Шанский Н.М. О границах фразеологии и составе фразеологических единиц. Фразеология современного русского языка. М., “Просвещение”, 1985, с. 48–62.

(5). Rahmatullayev Sh. Frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari. O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati. Toshkent, “O‘qituvchi”, 1992, 7–18-betlar.

(6). Speake J. Proverbs as a cultural and linguistic phenomenon. Oxford Dictionary of Proverbs. Oxford, Oxford University Press, 2008, p. 1–25.

(7). Yo‘ldoshev B. Hozirgi o‘zbek tilida frazeologiyaning nazariy masalalari. Hozirgi o‘zbek tilida frazeologiya. Toshkent, “Fan”, 2006, 30–55-betlar.

Tojiboyev Doniyor Dilshodovich (Alisher Navoiy nomidagi nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil tadqiqotchisi)

HOJI MUIN PUBLITSISTIKASIDA KONNOTATSIYANING NUTQIY VOQELANISHI

Annotatsiya. *Maqolada ma’rifatparvar jadid adibi Hji Muin Shukrullo og‘lining publitsistik maqolalarida qo‘llangan ko‘chimlarning semantik voqelanishi o‘rganilgan. Adib maqolalari tilining semantik-sitilistik rang-barangligini ta’minlagan ko‘chimlarning turli konnotatsion ma’nolari lisoniy tasniflangan.*

Kalit so‘zlar*: uzual ma’no, okkazional ma’no, ramziy ma’no, denotat, konnotativlik, semantika, semema, stilistik ma’no, grammatik ma’no, kollokatsiya, kolligatsiya, ellipsis.*

Тоджибоев Даниёр Дильшодович (независимый исследователь Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои).

ВОПРОСЫ КОННОТАЦИИ В РЕЧИ В ПУБЛИЦИСТИКЕ ХАДЖИ МУИНА

Аннотация. *В статье исследуется семантическая реальность метафор, используемых в журналистских статьях просвещенного писателя-джадида Хджи Муина Шукрулло оглу. Проводится лингвистическая классификация различных коннотационных значений метафор, обеспечивающих семантико-стилистическое разнообразие языка статей автора.*

Ключевые слова: *обычное значение, случайное значение, символическое значение, денотация, коннотативность, семантика, семема, стилистическое значение, грамматическое значение, коллокация, коллигация, эллипсис.*

Tojiboyev Daniyor Dilshodovich (is an independent researcher at the Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi)

THE SPEECH OCCURRENCE OF CONNOTATION IN THE PUBLICISTICS OF HAJI MUIN

Annotation. *The article studies the semantic reality of metaphors used in the journalistic articles of the enlightened Jadid writer Hji Muin Shukrullo oglu. The various connotational meanings of metaphors that provide the semantic-stylistic diversity of the language of the writer's articles are linguistically classified.*

Keywords: *usual meaning, occasional meaning, symbolic meaning, denotation, connotativity, semantics, sememe, stylistic meaning, grammatical meaning, collocation, colligation, ellipsis.*

Kirish. Publitsistik asar tilining xarakterli xususiyatini belgilovchi omillardan birini informativ (axborot beruvchi) mazmundagi matnning aniqligi, ravonligi, obrazliligi va ta’sirchanligini ta’minlashdagi so‘z ko‘chma ma’nosining lingvopoetik imkoniyatlari tashkil etadi. Badiiy matndagi singari publitsistik asarlar tilida ham leksemalararo konnotatsiyaning muallifning maqsadi, uning ichki dunyosi, ruhiy holatini

emotiv tarzda aks ettirish maqsad qilingan turli ko‘rinishlari voqelanishini ko‘rish mumkin. Biz tahlilga tortayotgan Hoji Muin publitsistikasi tili ham bundan mustasno emas.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jahon tilshunosligida ko‘p ma’nolilik (polisemiya) hodisasi ilk bor fransus tilshunosi M.Breal tomonidan lingvistik hodisa sifatida o‘rganilgan [1;335-b.]. Tilning nutq jarayonida chegaralanmagan imkoniyatlarini namoyish qila oluvchi hamda undan foydalanuvchilar uchun keng sharoit yaratib beruvchi lingvistik vosita hisoblangan ko‘pma’nolilik hodisasi o‘zbek tilshunosligida o‘tgan asrning 70-yillaridan boshlab tadqiqoqtchilar e’tiborida bo‘lgan bo‘lishiga qaramay [2:440], leksema semantik tabiatidagi birdan ortiq ma’no anglatishning yuzaga kelish sabablari, qonuniyatlari, vazifaviy uslub janrlaridagi obrazlilik, tasviriylik imkoniyatlari, polisemem leksemalardagi ma’nolararo munosabatlar hamda uning universal semantik hodisa sifatidagi lisoniy maqomi hozirda ham ilmiy muammo sifatida dolzarbligini yo‘qotmagan, bu bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda [3:20-b.].

Hoji Muin publitsistik asarlarining leksik xususiyatlarini o‘rganish, leksemalarning ifoda xususiyatlarini aniqlash shu narsani ko‘rsatdiki, muallif tomonidan qo‘llangan ayrim so‘zlarning semantik tabiati matnda o‘zgargan, kengaygan, ko‘p aspektli bo‘lgan va natijada turli tipdagi ko‘chma ma’nolarni hosil qilgan. Bunday ko‘chimlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

Metafora. Ma’noning o‘xshashlik prinsipi asosida ko‘chishi metaforik ko‘chimlarning asosini tashkil etadi. Bunda leksemalar emotsional-ekspressiv buyoq kasb etadi. Metaforik ko‘chimlarning mazmunmohiyati, yuzaga kelishining lingvistik omillari, turlari, semantik voqelanishi kabi masalalar bo‘yicha o‘zbek tilshunoslariigida tadqiqotlar olib borilgan. Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda o‘xshashlik asosidagi ma’no ko‘chishining lisoniy talqiniga yangicha yondashuv asosida ilmiy baho berildi [3;33-b.], bu ko‘chim turi tasniflanishida ham yangicha qarash shakllandi. Leksema va uning ma’no taraqqiyotida yuz beradigan semantik o‘zgarish jamiyat taraqqiyoti, davr xususiyatlari bilan aloqador bo‘lishi, tabiiy. Bu holatni biz tahlilga tortayotgan XX asr boshlaridagi davr vaqtli matbuot tili, xususan, Hoji Muin publitsistik asarlari leksikasi misolida ham ko‘rishimiz mumkin.

Adibning turli ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi maqolalarida borliq hodisalarining ma’lum bir tashqi, ichki belgi-xususiyatlarini obrazli tasvirlashda, nutqni jonlantirish, emotsional-ekspressiv jihatdan kuchaytirishda ot, sifat, fe’l turkumiga oid leksemalarning o‘ziga xos metaforik ko‘chimlarni hosil qilganligini ko‘ramiz.

Ot-metaforalar: “Fitrat afandi ijtimoiy ***xastaliklarimizning*** *eng muhlliklarini oilalarimizdan topmish va alarning ilojini ham kamoli muvaffaqiyat ila ochiq suratda bayon etmish...”* [4;70-b.]. Muallifning “Hurriyat” gazetasining 1917-yil 22-sentabrdagi sonida e’lon qilingan “Oila” nomli maqolasidan keltirilgan mazkur parchada *xastalik* – ot leksemasi o‘ziga xos tarzda metaforik ko‘chim hosil qilgan. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da arab tilidan o‘zlashgan mazkur ot leksema *kasal, kasalmand,* ko‘chma ma’noda *qiynalgan, dardli; kuchsiz, zaif* kabi ma’nolarni ifodalashi aytilgan” [5:24-b.]. Bu o‘rinda jamiyatning *kuchsiz, zaif* tomonlarini obrazli tasvirlashda muallif mazkur lekasemaning metaforik konnotativ semasidan maqsadli foydalangan.

Hoji Muin publitsistik maqolalarining g‘oyaviy mazmunida milliy ozodlik, maktab, maorif, ma’rifat, ilmiy, islomiy ma’rifatparvarlik, o‘sha davr ijtimoiy hayoti, xalq turmushidagi nuqsonlarni tanqid qilish va ularni bartaraf etish yo‘llarini izlash kabi masalalar bosh maqsad etib belgilanar ekan, adabiy tildagi ot leksemalarning metaforik ko‘chim asosidagi semalari ham milliy ozodlik, ma’rifat, bilim olishga intilish g‘oyalarini targ‘ib etishga yo‘naltirilganligini, shu mavzu bilan bog‘liq yangi hosila ma’nolarni yuzaga keltirganligini ko‘ramiz. Masalan, quyidagi parchaga diqqat qilaylik: *“Ay Turkistonli turk o‘g‘lonlarim! Endi jaholat* ***uyqusindan*** *uyg‘oningiz. Agar bu chog‘da ham jaholat* ***xobidan*** *uyg‘onmay yoqangizni jaholat* ***changalidan****, yurtingizni dushmanlar* ***tirnog‘idan*** *ajratib olmasangiz, qiyomatda sizlarga tamug‘ yerindan boshqa yurt berilmas,* ***zaqqum*** *oshindan bo‘lak yemak yedirilmaski, rasvoi olam bo‘lursiz”* [4:79-b.]. Parchada qo‘llangan *uyqu, changal, tirnoq, xob, zaqqum* kabi ot leksemalarning *“loqaydlik”, “ongsizlik”, “qo-loqlik”, “ma’rifatsizlik”, “jaholat”* kabi ma’nolarni ifodalash uchun ko‘chma ma’noda mohirona qo‘llani-shi xarakterlidir. Bunda muallif tasvirlanayotgan obraz, narsa va voqea-hodisalarga o‘zining subyektiv qa-rashlarini yorqin aks ettirishda sodda ot-metaforalardan keng foydalangan.

Maqolalar matnida metaforik ma’no ifodalayotgan leksemaga birikkan aniq va mavhum tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar orqali hosil qilingan kengaygan ot metaforalar ham mavjud: *“Masorifga ko‘brak ahamiyat berilganligi uchun natijada burung‘idek maorif* ***kissasi kasal****”* [4;165-b.]. *Xoin va aks harakatchilarni tanqid va hajv etib, shunday* ***zararli hasharotdan*** *hukumat degralarini tozalamoq uchun qo‘limizdan kelgancha tirishdik”* [4;93-b.]. *“Taraqqiyparvar yoshlar haqida qilg‘on vahshiyona muomalalari shunday* ***o‘tkur qalam*** *ila yozilg‘ondirkim, o‘qug‘on kishining ko‘zidan yosh oqmaslig‘i mumkin emas” [4;109-b.]; “Millatni* ***bo‘yniyo‘g‘onliq uyqusidan*** *uyg‘otub,* ***dangasalik vodiysidan*** *uch-to‘rt qadam yetak-lab bir chetga chiqarmoqqa ham muvaffaq bo‘lolmadim”* [4;149-b.]. Yuqorida keltirilgan *kissasi*

kasal, zararli hasharot, o'tkur qalam, bo'yniyo'g'onliq uyqusi, dangasalik vodiysi kabi sintaktik qurilmalar so'z-ning o'z va ko'chma ma'nolari o'rtasidagi yaqinlik, o'xshashlik asosida hosil qilingan kengaygan metafo-ralar hisoblanib, ularning ayrimlari adibning individual uslubiga xos birliklar hisoblanadi.

Sifat-metaforalar. Tilshunoslikka oid manbalarda: "Sifatlarning boshqa so'zlar bilan aloqaga kirishishi va sintaktik birikmani tashkil etishi *kolligatsiya* hamda *kollokatsiya* termini bilan yuritiladi. Kolligatsiya grammatik ma'nolarga asoslangan umumiy hodisa sanalsa, *kollokatsiya kolligatsiyaning* nutqiy talabga ko'ra yuzaga chiqishidir. Kolligatsiya ham, kollokatsiya ham so'zning polisemantik xususiyati oqibatida maydonga keladi" [6;49-b.]. Hoji Muin publitsistik asarlarida belgi-xususiyat ifodalovchi leksemalar asosida shakllangan metaforalar ham konnotatsiya hosil qilgan o'rinlar uchraydi. Bu xususda yana misollarga murojaat qilamiz: *"Hozir Turkistonning ba'zi bir shaharlarida yerlik xalqdan oz-moz* ***qizil militsiyalarimiz*** *bor. Shularni bir turlik* ***qizil askar*** *demoq mumkindur"* [4;127-b.]. *"Ehsitkanimizg'a qarag'anda, bu* ***qora xabar*** *bundagi mashhur poraxo'rlarg'a yetib, bularni qo'rqish va hayajong'a tushiribdur"* [4;154-b.]. *"Bukun o'quvchi afandilarg'a haqiqat so'zidan bir-ikki kalima arz etib so'zni bituraman, bu so'zimizg'a ehtimolki,* ***qaro niyatdagi*** *ba'zi o'quvchilar bo'ldi deyishar"* [4;150-b.]. Parchada keltirilgan *qizil* va *qora* leksemalarining bosh va asosiy yetakchi semasi rang tushunchasini ifodalashdir: "QIZIL. 1. Qon rangidagi; qirmizi, alvon. 2. ko'chma esk. Oktabr inqilobi, sho'ro tuzumi, armiyasiga oidlikni bildiradigan so'z" [5;181-b.]. "QORA. 1. Rang-tusi mavjud ranglarning barchasidan to'q; qozonkuya, ko'mir tusidagi. 2. ko'chma. Umuman, salbiy belgini, salbiy belgiga egalikni bildiradi; yomon" [5;222-b.]. XX asr boshlaridagi o'zbek vaqtli matbuoti tilida *qizil* leksemasining bosh ma'nosi asosida turli kollaktiv modellar yuzaga kelgan. Yuqoridagi parchada qo'llangan *qizil militsiya, qizil askar* birikmalarida bu leksema kishilarning kasb-hunarini ifodalovchi so'zlar oldidan kelib, metaforik ko'chim hosil qilgan va simvolik ma'no ifoda etgan. *Qizil* leksemasining semantik strukturasidagi bunday o'zgarish, semantik-stilistik qo'llanish rus tili ta'sirida bo'lgan deyishimiz mumkin. *Qora* leksemasi qatnashgan *qora xabar, qaro niyat* birikmalarida esa rang-tus ifodalovchi bu leksema sifatlovchi vazifasida kelgan. Aytish kerakki, "Qora" so'zi o'zbek shevalariaro ba'zi bir fonetik variantlarga ham ega. Toshk., Farg'., Qo'q. – qora; Jizzax– qa: ra; Sam.; Bux.; Shahris. – qaro va h... [7;64-b.]. O'xshashlik asosidagi ko'chma ma'noda aniqlovchi-aniqlanmish sintaktik munosabati qolipdagi metaforani shakllantirgan. Muallif rang-tus ifodalovchi *qizil* va *qora* leksemalarini ko'chma ma'noda qo'llash orqali o'ziga xos metaforizatsiyani yuzaga keltirgan va ularni publitsistik nutq talabi bilan konnotatsiya hosil qilishda pragmatik maqsadga yo'naltirgan. Publitsistik maqolalar matnida qo'llangan holat, maza-ta'm bildiruvchi sifatlarning metaforik qo'llanishi ham u yoki bu konnotativ xususiyatni o'zida aks ettirgan: *"Asar Turkiston sheva o'zbakiyasida (g'azetamiz shevasida) g'oyat voqifona va betaraфona suratda yozildig'idek, yengil ta'zim ila qarshi olindi"* [4;109-b.]. *"Ammo musulmonlar bolsheviklarning buzuq maslaklarini, buzuq muddaolarini anglab muxtoriyat tarafinda turdilar"* [4;81-b.]. Lug'atda "YENGIL so'zining: 1. Og'irligi, vazni kam, vazmin emas; 2. Ko'chma ma'noda asta va muloyim, yoqimli" kabi semalari mavjudligi aytilgan" [5;11-b.]. Shuningdek, ma'nodosh leksema sifatida "*oson* va *yengil* so'zlari narsa va harakat-holatga nisbatan ishlatilishi, xatti-harakatning yuzaga chiqishida qulaylikni ifodalashi aytilgan" [8;453-b.]. Demak, anglash mumkinki, *yengil ta'zim* birikmasida bu leksema metoforik ma'no kasb etib *muloyim, yoqimli* semasida qo'llangan. BUZUQ leksemasi ham belgi ifodalovchi so'z sifatida odatda "yaroqsiz holga kelgan; singan, vayron bo'lgan, istemolga yaroqsiz bo'lib qolgan narsa-predmetga nisbatan ishlatilishi, ko'chma ma'noda *yomon, o'rinsiz* semalariga egaligi ko'rsatilgan" [5;365-b.]. Muallif qo'llagan *buzuq maslak, buzuq muddao* birliklarida ham bu leksemaga ekspressivlik va emotsionallikni yuzaga keltirish maqsadida ko'chma ma'noda *yomon, o'rinsiz* semalari yuklangan. Kuzatganimizdek, adib publitsistikasida maza-tam, belgi-sususiyat ifodalovchi sifat leksemalar o'z denotativ ma'nolari ustiga qurilgan metaforik ko'chim asosida matn tarkibida konnotatsiyani yuzaga keltirishda faol qo'llanib, aytilmoqchi bo'lgan fikrni to'laqonli ifodalashda ahamiyat kasb etgan.

Fe'l-metaforalar. Turkumlararo morfologik sath birliklari orasida ish-harakat leksemalarida bosh ma'nodan kelib chiquvchi hosila (ko'chma) ma'nolarning yuzaga kelishi boshqa so'z turkumi birliklariga qaraganda salmoqli. Bunda metaforik ko'chim hosil qiluvchi va hosila ma'no referentlarining harakat va holati xususiyatining o'xshatilishligi asosida yuzaga keladi. Hoji Muin publitsistik maqolalarida fe'llarning metaforik ko'chma ma'nolarda qo'llanishi natijasida turli nutqiy imkoniyatlar vujudga kelgan. Natijada ish-harakat leksemalarining asl ma'nosi va ko'chma ma'nosi orasidagi mavjud bog'liqlik nutq jarayonida ko'chma ma'nodagi leksemaning uslubiy vazifasini yanada oydinlashtirgan.

Maqolalar matnida ish-harakat, holat semasiga ega bo'lgan leksemalar ba'zan yakka holda, ba'zan biror so'z bilan birikmali holda metaforik ko'chma ma'noda qo'llangan: *"O'rtoq Olimjon Ibrohimov "Qayum Nosiriy – tatar tilini tirgizgan bir kishi, unga yubiley qilish lozim" deb Tatariston gazetasida yozdi"* [4;118-b.]. *"Samarqand gazetasi mustabid hukumatning* ***siqishi*** *va moddiy jihatdan torliqda qolg'onlig'i sababdan ortuq davom etolmadi"* [4;121-b.]. *"Bu baxtsizlig'imdan barcha tadbir va hamma xidmatim*

foyda etmay, bo'shg'a ketdi" [4;149-b.]. *"Hosili kalom, hozirda musulmon dunyosi oila tarbiyasindan qo'l ko'targanlari va axloqsizliqlari sabab hozirgi holg'a tushdilar"* [4;85-b.].

Misollarda biz tahlilga tortmoqchi bo'lgan fe'llar struktural jihatdan sodda va qo'shma shaklga ega. Bunda *"tirgizgan"–"tiklagan"* ma'nosida; *"siqishi"–"qarshilik qilishi"* ma'nosida; *"torliqda qolg'on"* – *"qiyin ahvolda qolgan"* ma'nosida; *"bo'shg'a ketdi"* – *"bekorga ketdi"* ma'nosida; *"qo'l ko'targan"* – *"e'tibor bermaganlik"* ma'nosida metaforik ko'chim asosida qo'llangan.

Ko'rib o'tganimizdek, o'zbek tilidagi ish-harakat leksemalarining asosiy qismi ko'p ma'noga ega. Biroq ular ma'nosini aniqlashda shu so'zga asos bo'lgan narsa-hodisa, harakat-holat, ya'ni *denotat* hamda ular haqida ongimizda paydo bo'layotgan tushuncha, ya'ni, *designatni* e'tiborga olish muhim sanaladi. Izohda keltirilgan leksik birliklar tining umumiy me'yori sanalsa, muallif tomonidan qo'llangan ish-harakat leksemalarida so'zlovchining harakatga munosabati, emotsional-ekspressiv bo'yoq, ya'ni metaforik konnotatsiya mavjud.

Ish-harakat leksemalaridagi bu kabi metaforik qo'llanishlarni yana quyidagi misollarda ko'rish mumkin: *"Maorif va madaniyatg'a nihoyat darajada suvsag'on Turkistonda uch yarim yilliq inqilob davrinda ezilgan xalqning taraqqiy va taoliysi uchun yo'q darajasinda oz ish qilindi"* [4;109-b.]. *"Eski hukumatdorlarimizning og'ulari bilan gazetimiz yopildi. Biroq bizning yozg'onlarimizda sho'rolar hukumatini chimchilash yo'q erdi" [4;113-b.]; "Sarjin bozori ko'chasidan zinhor o'tmanglar. Chunki u yerg'a tashlang'on necha vogun axlat ichidan hammavaqt "sunbuli sahro" isi chiqib dimoqqa uradur va ro'zani sindiradur..."* [4;179-b.]. *"Qaysi kun bozorg'a chiqqan edim. Do'kondorlar so'lyapti, soliqchilar semiryapti"* [4;163-b.]. Keltirilgan misollardagi ish-harakat leksemalarining denotativ ma'nosi va harakat-holat o'xshashligi asosida ko'chgan hosila ma'nosini quyidagicha tavsiflash mumkin:

Fe'l leksema	Denotativ ma'nosi	Hoji Muin publitsistikasida qo'llangan ko'chma ma'nosi
suvsamoq	suvga tashna bo'lmoq, chanqamoq [5;549-b.].	maorif va madaniyat yo'qotilgan, tugatilgan
chimchilamoq	tananing biror yerini barmoqlar bilan qisib olmoq [5;487-b.].	sha'niga noloyiq gap gapirmoq, obro'sizlantirmoq
sinmoq	biror predmet yoki narsaning parchalanishi, darz ketishi, yorilishi [5;511-b.].	tutilgan ro'zaning qazo bo'lishi, buzilishi
so'lyapti	o'sib turgan yoki yangi uzilgan vaqtidagi holatini yo'qotmoq [5;614-b.].	g'am-tashvishdan dard-alam chekmoq
semirmoq	et olmoq, vazni ko'paymoq, to'lishmoq [5;479-b.].	cho'ntakning pulga to'lishi, nohaq pul undirish

Biz to'plagan faktik materiallar fe'l kategoriyasiga oid leksemalarning maqolalar matnida ko'p ma'noli tarzda faol qo'llanganligini ko'rsatdi. Muallif fe'l-metaforalardan voqea-hodisaning intensivligini oshirishda, fikrni reallashtirish yoki uning ahamiyatini alohida ta'kidlab ko'rsatishda muhim tasviriy vosita sifatida foydalangan. Umuman olganda, biz tahlilga tortgan leksemalardagi metaforik ma'no leksemaning bosh sememasi tarkibidagi denotativ (atash) va konnotativ (ifoda) semalari nisbatining o'zgarishi asosida his-tuyg'uni, fikrni obrazli ifodalash vositasi darajasiga ko'tarilgan. Metaforik ko'chim asosida yuzaga kelgan hosila ma'nolar esa lisoniy va nutqiy hodisalar sifatida ahamiyatli sanaladi.

Metonimiya. So'z ko'chimlari orasida metonmiya metaforaga ancha yaqin turadi. Ular o'rtasidagi farqni metaforik ko'chimning o'xshashlikka asoslanishi, metonik ko'chimni esa aloqadorlikka asoslanishi yuzaga keltiradi. Metaforalarga lisoniy va nutqiy jihatdan yondashiladigan bo'lsa, o'xshashlik obyektiv ham, subyektiv ham bo'lishi mumkin. Bu jihatdan metonimik ko'chim obyektivligi bilan xarakterlanadi.

Kengroq tushunilsa, "metonimik hosila ma'noning vujudga kelishi, asosan, lisoniy bog'lanish emas, balki obyektiv borliq hodisalari orasidagi nolisoniy aloqadorlik bilan bog'langan" [9;128-b.].

Manbalarda ta'kidlanishicha, "badiiy adabiyot namunalaridagi metonimiyalarni semantik mohiyat va vazifaviy-uslubiy xususiyatlariga ko'ra, ikki guruhga ajratib tahlil qilish mumkin: uzual metonimiyalar va kontekstual metonimiyalar" [10;33-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Lingvistik tahlil, kontekstual va stilistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, diskursiv va qiyosiy metodlar orqali Hoji Muin publitsistikasida konnotatsiyaning nutqiy voqelanishi ijtimoiy-mafkuraviy kontekstda ochib berildi..

Tahlil va natijalar. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqadigan bo'lsak, ma'no ko'chishining metonimiya (qayta nomlash) turi leksemalarning o'zaro aloqador, bo'g'liqligi asosida birining o'rnida ikkinchisi qo'llanishidir. Publitsistik uslub tilida boshqa tasviriy vositalar qatorida metonimiyaning ham o'rni xarakterli sanaladi. Bu ko'chim turi muallifning g'oyasini, maqsadini aniq tasvirlashda, qisqa va ixcham yoritish-

da muhim stilistik funksiyani bajaradi. Buni Hoji Muinning publitsistik maqolalari matnida uchragan aloqadorlik asosidagi ko‘chimlar misolida quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin:

1. Ellipsis natijasida boshqaruvli birikmadagi hokim komponentning tushirilishi natijasida metonimik ko‘chimning hosil bo‘lishi: *“Ba’zi maorif sho‘balarinda qotishib yurgan maorifparvar o‘rtoqlarning qo‘shishlari bilan o‘tgan bahorda Quliboybachcha hovlisinda musulmonlar uchun bolalar bo‘g‘chasi ochilib edi”* [4;101-b.]. Misoldagi *qo‘shishlari* ish-harakat leksemasi ot leksema hisoblangan *pul* leksemasi semasini ham o‘z ustiga olgan. Matnda *“pulni qo‘shishlari”* boshqaruvli birikma ma’nosini anglatmoqda.

2. Inson tana a’zosi nomining faoliyat-jarayon nomi o‘rnida qo‘llanishi: *“Bolalarni pokizalikka odat qildiralar. O‘yun vaqtinda, tomoq vaqtinda kiyimlarini, qo‘llarini bulg‘otdirmaydirlar”* [4;101-b.]. Bu misolda *“tomoq”* so‘zi *“ovqatlanish, tamaddi qilish”* jarayon oti o‘rnida ishlatilgan.

3. Narsa-predmetning atoqli oti bilan turdosh otining doimiy aloqasiga asoslangan metonimiyalar: *“Mashrab”ning bu sonidag‘i ikki ko‘runish, bizning nazari diqqatimizni o‘ziga qahrabodek tortib qo‘ydi”* [4;166-b.]; *“Majmuiyi safho”da yozilg‘oniga ko‘ra, oxir zamonda Turkistonda “mahkamayi shar’iya” ochilib, bu mahkamaning ishlarini bir vaqt kofirlik otini ko‘targan jadid sinfini boshqaradur”* [4;159-b.].

4. O‘rin-joy, makon ifodalovchi so‘zlarning shaxs, narsa nomiga ko‘chirilishi: *“Narsalarni yig‘ib bo‘lub, vag‘un trizasindan boshimni chiqarib qarasam, qatorimiz Kattaqo‘rgonga yaqinlashibdir”* [4;72-b.].

5. Predmet, narsa nomining aloqadorlik asosida uning miqdorini anglatuvchi so‘z nomiga ko‘chishi: *“Yashamak shartlari va hayoti ijtimoiyadagi vazifalarning eng umdalari: askarlik, maorif, til, adabiyot, ziroat, tijotat ekanligi ma’lumdir. Bularning mumkin suratda vujudka ijtihod chiqarilishi uchun ko‘b umrlar va ko‘blar sarf qilmoq kerakdur”* [4;90-b.].

6. Harakat-hodisa bajariladigan vaqtning shu harakat-hodisaning nomi bilan atalishi: *“Bir vaqt uomizdagi buxoriy yo‘ldoshlarimizg‘a qarasak, xurr-xurr uxlab qolibdilar, azonga yaqin xeyli so‘ylashib oldiq”* [4;72-b.].

7. Harakat ifodalovchisi bilan uning natijasi yoki unga aloqador bo‘lgan jarayonning nomlanishi: *“Arabiston, Misr, Istanbul, Kafkaz, Tatariston va Eron musulmonlari bolalarining xatnalari uchun to‘y bermaslar, loaqal biror kishini chaqirib ziyofat ham qilmaslar” [4;97-b.].* Misoldagi *“to‘y”* leksemasi bosh ma’noda *“yeb-ichish natijasida nafsni qondirmoq”* ma’nosini ifodalaydi, matn tarkibida esa *“bazm-tomasha bilan ziyofat berib o‘tkaziladigan marosim”* ma’nosida metonimik ko‘chimni hosil qilgan.

8. Biror mashg‘ulot, o‘yindagi obyekt nomining shu mashg‘ulot, o‘yinning nomining anglatish: *“Bizning turkistonlilar xatna to‘yig‘a ko‘b ahamiyat berib, bi kundan besh-olti kungacha uloq beradilar* [4;97-b.]. Bunda ko‘pkari o‘yin, musobaqaning obyekti o‘rtaga tashlangan uloq. Shu aloqadorlik asosida o‘yin, musobaqaning nomi ham *uloq* deb nomlanmoqda.

9. O‘lchov-miqdor ifodalovchi so‘z nomi bilan narsa, voqea-hodisaning nomlanishi: *“O‘luk va ta’ziya to‘g‘risinda ham yomon urf va rusumlarimiz ko‘bdir. Xotun-qizlarning “go‘yanda” va “sadr” ila baland yig‘lamoqlari, “uch”, “yetti”, “yigirma”, “qirq”da xalqqa osh bermak kabialr...”* [4;99-b.].

Tahlilga tortilgan metonimik ko‘chimlarning ayrimlari uzual, ya’ni lisoniylashgan maqomda bo‘lsa, ayrimlari muayyan sintaktik qurshovda nutq sharoiti va muallifning kommunikativ maqsadiga mos ravishda nutqiy jarayondagina yuzaga kelgan nutqiy hosilalardir. Biroq ular matnda shunchaki biror bo‘lakning tushurilishi, shunga qaramay, ma’noning to‘liq anglanaverishi bilan yuzaga kelgan oddiy hodisa emas, chunki bunday simvol darajasiga ko‘tarilgan metonimik ko‘chimlar orqali muallif aytmoqchi bo‘lgan fikrini mumkin qadar qisqa, lo‘nda ifodalashga erishgan.

Sinekdoxa. Inson tafakkurida son-sanoqsiz tasavvur va tushunchalarning har birini nomlash imkoniyati cheklangan. Buning oqibatida tilda qayta nomlash (ikkilamchi nominatsiya) hodisasi vujudga kelganki, bu orqali mazkur muammoning yechimi tipilgan. Bunda o‘z referentiga ega bo‘lgan, avval nomlangan leksemalar kommunikatsiya jarayonida boshqa bir referentga nisbatan nomlash vazifasini bajaradi. Shu asosda til qurilishida turli ma’no ko‘chimlari yuzaga keladi. Ma’no ko‘chishining sinekdoxa turida “narsaning nomi bilan uning biror qismini atash, aksincha, biror narsaning qismi bilan u mansub bo‘lgan butunni atash tushuniladi” [9;128-b.]. Manbalarda konnotativ ma’no hosil qiluvchi ko‘chimning mazkur turi haqida turlicha talqinlar kuzatiladi. Ba’zi adabiyotlarda “bu ko‘chim turiga metonimiyaning bir ko‘rinishi sifatida qaralsa, ayrimlarida metoforaning alohida bir ko‘rinishi sifatida baho beriladi” [11;283-b.]. Mazkur ko‘chim turi tashqi yoki ichki tomondan bir-biriga aloqador narsa yoki hodisaning nomi nuqtayi nazaridan metonimiyaga o‘xshab ketadi. Biroq bunda narsalarning butun va qismlari orasidagi munosabat yaqqol aks etib turganligi bois, sinekdoxani ko‘chimning alohida xususiyatlarga ega bo‘lgan mustaqil turi deb talqin qilish maqsadga muvofiqdir. Hoji Muin publitsistik maqolalarida sinekdoxik ko‘chim ot so‘z turkumi doirasida quyidagi ko‘rinishlarda voqelangan:

1. Bo‘lak nomining butun nomiga ko‘chishi asosida hosil bo‘lgan sinekdoxik ko‘chim: *“Hongur-hungur yig‘layman, nola va faryod qilaman... Ammo manim bu holimni ko‘rguchi ko‘z qayda, eshitguchi quloq qani?”* [4;79-b.]. *“Ushbu to‘g‘ruda so‘z uzayturmoqni ortuq ko‘ramiz va ushbu tafriqa (ayriluv)g‘a sabab Samarqand “Sho‘roi islomiyasi” bo‘lg‘onlig‘i ma’lumdur”*[4;69-b.]. *“Biz kamchiligimizning qaysi nuqtada ekanligini bilib, qalamimizni isloh qilar edik”* [4;113-b.]. *“Faqat o‘zining jaholat va safohatini isbot etmoq, tanbeh bermoq qasdila bir-ikki harf yozmoqni munosib ko‘rdim”* [4;55-b.].

Misolda keltirilgan “ko‘z”, “quloq” leksemalarining inson ta’na a’zosi sifatida butun, ya’ni “odam, inson, kishi” leksemalari o‘rnida qo‘llanishi adabiy tilning funksional uslublari doirasida ko‘p kuzatiladi. Aniqroq aytganda, ular ifodalagan hosila ma’no barcha uchun tushunarli. Xuddu shu kabi fikr ifodalashning eng kichik birligi hisoblangan “so‘z” leksemasining “ko‘chma ma’noda gap, nutq so‘zlari o‘rnida qo‘llanishi mavjud” [5;608-b.]. Demak, muallif qo‘llagan bu birliklarning sinekdoxik ko‘chim asosidagi hosila ma’nolari tilda turg‘unlashgan, lisoniyalshgan. Biroq fikrni yozma shaklda ifodalashda qism sifatida ishtirok etuvchi “qalam” leksemasining “fikr” ma’nosini; “harf” leksemasining *“so‘z, jumla, gap”* ma’nosini ifodalashini muallif uslubiga xos original qo‘llanish yoki nutqiy sinekdoxik ko‘chimning yuzaga kelishi deb baholasak bo‘ladi.

2. Butun nomining bo‘lak nomiga ko‘chishi asosida hosil bo‘lgan sinekdoxik ko‘chim: *“Besh qo‘l barobar emas. Hol shunday ekan, endi Qosim o‘rtoqning ham tanqidlarig‘a quloq solaylik”* [4;115-b.]. Gapdagi *besh qo‘l* so‘zi *behta barmoq* hosila ma’nosida qo‘llangan. Bu o‘rinda butun nomi bilan bo‘lak ifodalangan. Qism o‘rnida butun qo‘llanishli sinekdoxalar maqolalar matnida salmoqli ekanligi kuzatilmadi.

Xulosa qilganimizda, adib publitsistikasida qo‘llangan turli usuldagi so‘z ko‘chimlari shaxs, narsa-predmetning asl nomlari orqali yuzaga chiqmagan xususiyatlarini tasvirlab uslubiy vosita sifatida publitsistik nutqqa ko‘tarinkilik, obrazlilik bag‘ishlagan. Ifoda va ekspressivlik potensiyasiga ega bo‘lgan, muallif nutqigagina xos ayrim ko‘chimlar esa XX asr boshlari o‘zbek adabiy tili lug‘at tarkibini boyitishga xizmat qilib, publitsistik nutq va uslub tilida takrorlardan qochih imkonini bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Ахманова О. Словарь лингвистических терминов. Москва, 1969, с. 335.

(2). Миртожиев М. Ўзбек тилида полисемия. Тошкент, “Фан”, 1975, 440-бет.

(3). Қобулжонова Г. Метафоранинг системавий лингвистик талқини. Филол. фан. номз.. дисс... автореф., Тошкент, 2000, 20-бет.

(4). Ҳожи Муин. Танланган асарлар. Тошкент, “Маънавият”, 2010, 256-бет.

(5). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. VI jildli, VI jild, Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi, 2022, 24-бет.

(6-. Юсупов К. Ўзбек адабий тилининг лексик-семантик ва стилистик хусусиятлари (XX асрнинг биринчи ярми вақтли матбуот материаллари асосида). Тошкент, “Фан”, 1986, 124-бет.

(7). Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. Тошкент, “Фан”, 1974, 64-бет.

(8). O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot- matbaa uyi, 2023, 453-бет.

(9). Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o‘zbek tili (oliy o‘quv yurtlari uchun darslik). Toshkent, “Innovatsiya-Ziyo”, 2020, 536-bet.

(10). Каримов С. Шоира Зулфия поэзияси тилида метонимиялар. Ўзбек тили стилистикаси ва нутқ маданияти масалалари. Самарқанд, 1980, 33-бет.

(11). Шомақсудов А., Расулов И., Қунғуров Р. Ўзбек тили стилистикаси. Тошкент, “Ўқитувчи”, 1983, 283-бет.

Ibodova Malika Gulmurodovna (Qarshi davlat universiteti 2-bosqich tayanch doktoranti; malikaibodova98@gmail.com)

O‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATLARIDA SHAXS MA’NAVIYATINI IFODALOVCHI BIRLIKLARNING TAVSIFLANISHI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o‘zbek tilining izohli lug‘atlarida shaxs ma’naviyatini ifodalovchi leksik birliklarning tavsiflanish xususiyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot davomida ma’naviyat, axloq, vijdon, iymon, poklik, halollik, saxiylik, kamtarlik, olijanoblik kabi tushunchalarni ifodalovchi birliklarning leksikografik tavsifi, semantik tuzilishi va lug‘atlarda aks ettirilish usullari tahlil qilingan. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy o‘zbek izohli lug‘atlari shaxs ma’naviyatini ifodalovchi birliklarni tavsiflovda milliy-madaniy kontekst, semantik differensiatsiya va uslubiy bo‘yoqlarni hisobga olgan holda, keng qamrovli yondashuv qo‘llaydi, biroq ba’zi birliklarning pragmatik jihatlarini yoritishda kamchiliklar mavjud.*